

# ELEKTRON SERVIS KITOBCHASI

GEELY MONJARO



## **DIQQAT**

Mazkur elektron servis kitobchasida ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan avtomobilning kafolatli ekspluatatsiya muddati davomida amal qiladigan diler va avtomobil egasining majburiyatlari bayon etilgan.

Rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish vaqtida avtomobil egasi servis xizmati tarixining chop etilgan nusxasini oladi. Shuningdek, u avtomobilga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda, rasmiy diler orqali ushbu tarixni so'rab olishi mumkin.

Servis xizmat ko'rsatish tarixi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davriy texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlar;
- kuzovning inspeksion ko'riklari;
- distribyutorning Internet tarmog'idagi rasmiy saytida joylashgan Elektron servis kitobchasi, Elektron foydalanish qo'llanmasi hamda Multimediyali tizim bo'yicha Elektron qo'llanmaga kirish tartibi: <https://www.geelyuz.com>



## HURMATLI XARIDOR!

Geely mahsulotini tanlaganingiz uchun rahmat!

Ushbu qo'llanmani avtomobil ichida saqlang. U sizga sifatli texnik xizmat ko'rsatilishiga kafolat beradigan muhim hujjat hisoblanadi.

Yangi avtomobil sotib olishga sarmoya kiritish va yangi avtomobilingizni optimal ishlashi va yaxshi texnik holatda saqlash uchun ushbu qo'llanmani va unga ilova qilingan Foydalanuvchi qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqing. Qo'llanmalar transport vositangizni yaxshiroq tushunish va undan foydalanishga yordam beradi hamda huquq va manfaatlaringizni samarali himoya qilish uchun duch kelishingiz mumkin bo'lgan muammolarning asosiy yechimlari bilan tanishtiradi.

Avtomobil xavfsizlik, qulaylik, quvvat va tejamkorlik bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Agar foydalanish paytida biror muammo aniqlansa, yaqin-atrofdagi Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi avtomobilingizga yuqori sifat bilan texnik xizmat ko'rsatadi, uni ta'mirlaydi va qismlarini almashtiradi. Foydalanuvchi qo'llanmasi va texnik xizmat qoidalarida aytilganidek avtomobilingizni o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazib turing.

Avtomobilingiz ko'proq vaqt soz ishlashi uchun faqat Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi tomonidan sotiladigan asl ehtiyot qismlardan foydalaning.

Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi tomonidan ko'rsatiladigan lozim darajadagi davriy texnik xizmat avtomobilingiz optimal holatda bo'lishini ta'minlab, ishonchli va uzoq vaqt ishlashiga imkon beradi. Shuning uchun, kafolat davrida, iltimos, har 10 000 km yo'l yurganidan so'ng yoki har 12 oyda bir marta avtomobilingizni Geely vakolatli texnik xizmat markazida texnik ko'rikdan o'tkazing.



Geely vakolatli texnik xizmat markazida vaqtida texnik xizmatdan o'tmagan avtomobilning texnik xizmat bilan bog'liq sifat muammolariga kafolat amal qilmaydi.

Qo'llanmadagi materiallarning hammasi eng so'nggi hisoblanadi va shu seriyadagi barcha modellarga amal qiladi. Konfiguratsiya haqidagi batafsil ma'lumot avtomobilga qarab o'zgarishi mumkin. Milliy qonun va me'yorlarga muvofiq bo'lish uchun Geely ushbu Qo'llanma mazmunini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Kafolat amal qiladigan muddat davomida avtomobilingizni boshqa shaxsga sotsangiz, avtomobilning yangi egasiga ushbu Qo'llanmani ham topshiring.

Eslatib o'tamiz, avtomobilingizning biror joyini o'zgartirish uning mexanik ko'rsatkichlariga, xavfsizligiga yoki xizmat muddatiga ta'sir qiladi. Geely ruxsatsiz o'zgartirishlar tufayli yuzaga kelgan sifat bo'yicha muammolari uchun javob bermaydi.

Geely avtomobilining sifati va sotuvdan keyingi texnik xizmat masalasida qimmatli takliflaringizni mamnuniyat bilan qabul qiladi

GEELY XALQARO AVTOMOBIL KORPORATSIYASI



## **BIZ BILAN BOG'LANISH**

Bizning maqsadimiz – sizni qanoatlantirish.

Geely vakolatli dilerlari Geely avtomobilingizni yaxshi holatda saqlash uchun zarur bilim va vositalarga ega. Agar Geely avtomobilingizga ko'rsatiladigan xizmati yuzasidan biror savol yoki shikoyatingiz bo'lsa, quyidagilarni bajarishni tavsiya qilamiz:

### **1-QADAM**

Muammoni Geely vakolatli dileri bilan muhokama qiling. Bu muammoni hal qilishning eng tez va eng yaxshi usulidir.

Agar bu masala allaqachon SAVDO yoki SERVIS MENEJERI bilan ko'rib chiqilgan bo'lsa, dilerlik markazining DIREKTORI yoki BOSH MENEJERiga murojaat qiling.

### **2-QADAM**

Agar 1-QADAMda keltirilgan ko'rsatmalarni bajargandan keyin ham sizga yordam kerak bo'lsa, o'zingiz yashaydigan joydagi Geely vakolatli distribyutori bilan bog'laning.

Sizga to'liq yordam berish uchun ularga quyidagi ma'lumot kerak bo'ladi.

1. Ismingiz, manzilingiz va telefon raqamingiz
2. Avtomobil chiqarilgan yil va uning modeli
3. Avtomobilning identifikatsiya raqami (VIN)
4. Sotib olingan sana va bosib o'tgan masofa
5. Dilingizning nomi va manzili
6. Savolingiz yoki shikoyatingiz



## KAFOLAT XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

### I. Avtomobilga berilgan to'liq kafolat

1. Quvvat uzatgichiga 5 yil yoki 150 000 km; avtomobilning o'ziga 5 yil yoki 150 000 km; alohida qismlariga 3 yil yoki 60 000 km (vaqt yoki bosib o'tilgan masofa qaysi biri oldin kelishiga qaraladi). Kafolat yangi avtomobilning xarid hisob-faktura rasmiylashtirilgan kundan boshlab amal qiladi. Kafolat tafsilotlari quyidagi jadvalda berilgan:

Mundarija		Kafolat amal qiladigan vaqt/bosib o'tgan masofa (qaysi biri oldin kelishiga qaraladi)	
		Vaqt (oy) Notijorat / Tijorat	Notijoriy bosib o'tgan masofa / Tijoriy bosib o'tgan masofa
Quvvat uzatgich	Dvigatel va uzatma	60 / 12	150 000/100 000
Butun avtomobil (Ro'yxatga ko'rsatilmagan qism va tarkibiy qismlar)	Quyidagi Kelishuv ro'yxatida ko'rsatilmagan qism va tarkibiy qismlar.	60 / 12	150 000/100 000
Cheklangan kafolat (qaysi biri oldin kelishiga qaraladi)	Bo'yoq, amortizator, sharli bo'g'in, simlar yig'indisi, oyna, podshipnik, tovush signali, sigaret tutatgich, oyna regulyatori, rezina qismlar, generator, starter, maxovik, yuqori kuchlanishli komponent kabeli, o't oldirish g'altagi, tasma, uch tomonlama katalitik konvertor, termostat, turbokompressor, ulanish muftasining bosuvchi diski, datchik, ijrochi mexamizm, barcha salniklar, tormoz diski, orgaqa yurish chirog'ini yoqqichi, multimedia qurilmasi, oyna tozalagich motori, eshik qulflari, barcha chiroqlar, ishlangan gazlar chiqarish quvuri, suv nasosi.	36 / 12	60 000
	Akkumulyator	12	20 000
	Shinalar, tormoz kolodkasi, ulanish muftasining ishqalanish diski, havo filtri, konditsioner filtri, moy filtri, benzin filtri, o't oldirish svechasi, pult batareyasi, chiroq lampochkasi, oyna tozalagich, saqlagich va rele (boshqarish blokiga birlashgandan tashqari)	3	5 000
Kafolat berilmaydi	Ekspluatatsiya davomida ishlatiladigan moy, ekspluatatsiya davomida ishlatiladigan surkov moyi, ekspluatatsiya davomida ishlatiladigan tormoz suyuqligi, ekspluatatsiya davomida ishlatiladigan sovutuvchi suyuqlik, ekspluatatsiya davomida ishlatiladigan oyna yuvish suyuqligi, ekspluatatsiya davomida ishlatiladigan konditsioner sovitgichi		



2. Kafolat davrida tez yemiriladigan qismda muammo paydo bo'lsa Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi ushbu ehtiyot qismni bepul ta'mirlaydi yoki almashtirib beradi.

## II. Ehtiyot qismlarga beriladigan kafolat

Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazida o'rnatilgan asl ehtiyot qismlarga quyidagi kafolatlar beriladi:

"Asl ehtiyot qismlar" tushunchasining ta'rif: Geely yetkazib bergan yoki Geely tomonidan ma'qullangan ehtiyot qismlar.

1. Xaridorning hisobidan almashtiriladigan asl ehtiyot qismlar Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazida Xaridor hisobidan almashtirilgan asl ehtiyot qismga o'rnatilgan sanadan boshlab, qaysi biri oldin kelishiga qarab 1 yil yoki 20 000 km kafolat beriladi (texnik xizmat hisob-faktura rasmiylashtirilgan kundan boshlab hisoblanadi)
2. Geely bepul o'rnatgan asl ehtiyot qismlar uchun Avtomobilga beriladigan kafolat davrida sifati yomon bo'lgani uchun bepul almashtirib berilgan asl ehtiyot qismga almashtirilgan kundan boshlab 1 yil yoki 20 000 km (qaysi biri oldin kelishiga qarab) kafolat beriladi. "Foydalanuvchining manfaati birinchi o'ringa qo'yiladi" degan qoidaga asosan agar yangi o'rnatilgan asl ehtiyot qismning kafolat muddati avtomobilning qolgan kafolat muddatidan kam bo'lsa, yangi ehtiyot qismning kafolat muddati avtomobilning kafolat muddatiga teng bo'ladigan qilib uzaytiriladi.
3. Qaytarib olish yoki xizmat ko'rsatish kompaniyasi (Field Fix) davomida bepul almashtirilgan asl ehtiyot qismlar uchun, butun avtomobilning kafolat muddati tugagan bo'lsa, kafolat muddati almashtirish sanasidan boshlab 1 yil yoki 20 000 km ni tashkil etadi (qaysi biri oldin kelishiga qarab).
4. Xaridorning hisobidan almashtirilgan yoki Geely bepul almashtirib bergan asl akkumulyator va shinaga almashtirilgan kundan boshlab 3 oy yoki 5 000 km kafolat beriladi (qaysi biri oldin kelishiga qarab).
5. Kafolat davri tugaganidan so'ng Geely bepul almashtirib bergan ehtiyot qismga beriladigan kafolat muddati Geely bepul almashtirib bergan ehtiyot qismning kafolat muddati tamom bo'lganda tugaydi.

## III. Umumiy qoidalarga istisnolar

1. Tez yemiriladigan qismning sifat bilan bog'liq muammosi kafolat davri tugaganidan so'ng yuzaga kelgan bo'lsa;
2. Xaridor oila avtomobilining kamchiligi haqida yozma ogohlantirilgan bo'lsa;
3. Oila avtomobili tijorat uchun yoki boshqa maqsadda foydalanilgan bo'lsa;
4. Ushbu qo'llanmada yoki foydalanish qoidalarida "ushbu qism o'zgartirilmaydi, sozlanmaydi yoki olib tashlanmaydi" deyilishiga qaramay biror qism o'zgartirilgani, sozlangani yoki olib tashlangani uchun shikastlangan bo'lsa.
5. Xaridor noto'g'ri foydalangani uchun sifat bilan bog'liq muammo yuzaga kelgan va mahsulot shikastlangan bo'lsa;
6. Xaridor ushbu qo'llanmaga yoki foydalanish qoidalariga muvofiq mahsulotdan foydalanmagani, texnik xizmat ko'rsatmagani yoki ta'mirlamagani uchun mahsulot shikastlangan bo'lsa;
7. Mahsulot fors major vaziyat sababli shikastlangan bo'lsa;
8. Kafolat amal qiladigan davrda xaridor oila avtomobili uchun amaldagi hisob-fakturani taqdim qila olmasa.

## Kafolat masalasida nizo chiqmasligi uchun xaridorning e'tiborini quyidagi qoidalarga qarataimiz:

1. Agar xaridor avtomobilini Qo'llanma yoki Foydalanish qoidalaridagi tegishli texnik xizmat talablariga muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazmagan yoki avtomobiliga Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazida texnik xizmat qildirmagan yoki tekshirtirmagan bo'lsa kafolat masalasida nizo chiqishi mumkin.
2. Agar avtomobil odometri Geely vakolatli xizmat ko'rsatish markazida almashtirilmagan bo'lsa yoki bosib o'tgan masofani tasdiqlashning imkoni yo'q bo'lsa kafolat masalasida nizo chiqishi mumkin. Odometrni Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazida almashtirish tavsiya etiladi, shunda vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi odometr almashtirilganini yozib qo'yadi va ushbu qo'llanmada Odometrni almashtirish yozuvini tasdiqlab tamg'a bosadi. Agar transport vositasining bosib o'tgan masofasini sifatga bog'liq bo'lmagan muammo sababli tasdiqlashning iloji bo'lmasa, umumiy bosib o'tilgan masofani 100 km/kun asosida hisoblang.



3. Transport vositasida nosozlik yuz bergandan so'ng, xaridor ataylab asl nosozlik holatini yashirsa yoki transport vositasining nosozligi haqida yolg'on ma'lumot bersa, asl nosozlikni aniqlash imkonsiz bo'lgani sababli, bu kafolat majburiyatlari bo'yicha nizoli vaziyat keltirib chiqarishi mumkin.
4. Geely tomonidan ruxsat etilmagan har qanday o'zgartirish yoki qo'shimcha o'rnatish, jumladan, avtomobilning asl tuzilishi va elektr jihozlari sxemasini o'zgartirish, asl bo'lmagan ehtiyot qismlarni qo'shimcha o'rnatish va boshqalar uchun Geely korporatsiyasi yong'in, baxtsiz hodisa, qurbonlar va boshqa turdagi shaxsiy jarohatlar va mol-mulk yo'qotishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

#### **IV. Kafolat xizmat ko'rsatish haqida batafsil qoidalar**

1. Kafolat davrida avtomobilga beriladigan kafolat qoidalari. Avtomobilning to'liq kafolat muddati davomida, xaridor tomonidan sotib olingan avtomobilning sifati bilan bog'liq har qanday muammo yuzaga kelganda, Geely bepul ko'rikdan o'tkazish, ta'mirlash yoki almashtirish uchun javobgardir.
2. Boshqa qoidalar:
  1. Geely tomonidan taqdim etilgan kafolat muddati davomida xaridor ushbu Qo'llanma va Foydalanuvchi qo'llanmasidagi qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda o'z transport vositasidan foydalanishi va unga texnik xizmat ko'rsatishi shart.
  2. Foydalanish davrida biror kamchilik borligi ma'lum bo'lsa faqat Geely vakolatli texnik xizmat markazi kafolat ta'mirlash uchun ariza qabul qilishga haqli bo'ladi. Biror kamchiligi borligi ma'lum bo'lsa tekshirtirish yoki ta'mirlatish uchun xaridor avtomobilini yaqindagi vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markaziga jo'natadi yoki vaqtida vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'lanadi.
  3. Avtomobilga beriladigan to'liq kafolat boshlanadigan sana xarid hisob-fakturasini rasmiylashtiriladigan sanaga bog'liq bo'ladi. Xaridor kafolat xizmat ko'rsatishni so'raganda xarid hisob-fakturasini vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etishi kerak. Aks holda Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi xaridorga kafolat xizmat ko'rsata olmaydi.

4. Xarid hisob-fakturasini yo'qolgan bo'lsa xaridor vaqtida Geelyning vakolatli dileriga murojaat qilib yangi xarid hisob-fakturasini rasmiylashtirib berishlarini so'rashi kerak. Xaridor vaqtida xarid hisob-fakturasini qayta rasmiylashtirmagan natijasida kafolat xizmat ololmagani uchun Geely javobgar bo'lmaydi. Xarid hisob-fakturasini qayta rasmiylashtirilganidan so'ng xaridor yana Geely taklif etadigan kafolat xizmatdan foydalanishi mumkin.
5. Texnik talablarga muvofiq, kafolat shikastlagan qismlarini almashtirish yoki ta'mirlashni ham qamrab oladi. Geely yoki Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazi vaziyatga qarab qismni ta'mirlash yoki almashtirishni o'zi hal qilishga haqli bo'ladi.
6. Kafolat bilan qoplanadigan texnik xizmat ko'rsatishda sarflangan mehnat soatlari va moddiy xarajatlar Geely tomonidan qoplanadi.
7. Texnik xizmat ko'rsatilganda almashtirilgan qismlarga egalik huquqi Geely ga o'tadi.



## TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH QOIDALARI



Dvigatel moyining sathi belgilangan balandlikda bo'lishi kerak. Dvigatel moyini almashtirganda Geely tavsiya qilgan brendning dvigatel moyidan foydalaning. Avtomobil egasi avtomobiliga texnik xizmat ko'rsatish va uni soz saqlash uchun javobgar hisoblanadi. Davriy texnik xizmat spetsifikatsiyasiga muvofiq avtomobilingizni talab qilingan muddatda texnik xizmatdan o'tkazib turing.

Geely faqat o'zining maxsus sotuvdan keyingi vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazlariga Geely asl ehtiyot qismlarini tarqatish huquqini beradi. Geely biror uchinchi tomonga Geelyning asl ehtiyot qismlarini sotish uchun mahsulot bermaydi, vakolat bermaydi yoki ishonib topshirmaydi hamda shunday holatlarning oqibati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Shu bilan birga, Geelyga tegishli bo'lmagan asl qismlardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nosozlik yoki zarar sifatini ta'minlash doirasiga kiritilmaydi.

Geely o'zi ishlab chiqarmagan ehtiyot qismlarni tekshirmaydi va ulardan foydalanishga ruxsat bermaydi. Geely bunday ehtiyot qismlarning xavfsizligini tasdiqlashga vakolatli emas, shuning uchun bunday ehtiyot qismlardan foydalanganlik uchun yuzaga kelgan shikastlanishlar hamda ularning oqibati uchun Geely javobgar bo'lmaydi.



Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish xavfli bo'lishi mumkin. Muayyan ishni bajarishga uringaningizda, agar uni to'g'ri bajarmasangiz, jiddiy jarohat olishingiz mumkin. Kerakli texnik bilimlarga ega bo'lib, kerakli uskuna va jihozlarni ishlatishni bilganingizdan keyingina avtomobilni ta'mirlashingiz mumkin. Shuning uchun, avtomobilingizni faqat Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazida ta'mirlating.



Ushbu Qo'llanmada ko'rsatilgan texnik xizmat ko'rsatish muddatlariga amal qiling, avtomobilning yaxshi holatini ta'minlash uchun vaqti-vaqti bilan ko'rikdan o'tkazish, ta'mirlash va tavsiya etilgan suyuqlik va moylash materiallaridan foydalanish zarur. Davriy texnik xizmat ko'rsatish talablariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga kelgan

shikastlanishga Avtomobil sifatiga kafolat berish qoidalari amal qilmaydi.

Texnik xizmat ko'rsatish muddati avtomobilning normal harakatlanish sharoitlariga asoslanadi. Agar avtomobildan quyidagi og'ir sharoitda foydalansangiz texnik xizmat ko'rsatiladigan qismlar sonini ko'paytirish, texnik xizmat ko'rsatish oralig'ini kamaytirish yoki texnik xizmat siklini ozaytirish tavsiya etiladi:

- Dvigatel sovuq bo'lganda (Dvigatel o'chganidan so'ng 1 soatdan ko'p vaqt o'tganda) tez-tez qisqa masofaga (10 km dan oz joyga) yurish.
- Harorat 30°C dan baland bo'ladigan yoki -15°C dan past bo'ladigan joyda avtomobildan ko'p vaqt foydalanish.
- Dvigatelni uzoq vaqt harakatsiz ishlatish yoki uzoq masofani past tezlikda uzoq vaqt davomida bosib o'tish.
- Avtomobil tez-tez yuqori tezlikda yurishi hamda yuqori tezlikda ko'p vaqt yurishi.
- Avtomobil harakat ko'p bo'ladigan shahar ko'chalarida tez-tez to'xtab harakatlanishi.
- Avtomobil ko'pincha qumloq yoki chang yo'lda yurishi.
- Avtomobil ko'pincha notekis, loy yoki qorli yo'lda yurishi.
- Avtomobil ko'pincha maxsus transport, masalan, taksi yoki ichki ishlar organlari transporti sifatida ishlatilishi.
- Avtomobilga sifat talablariga to'g'ri kelmaydigan benzin quyilganda.
- Agar avtomobildan ko'p vaqt og'ir sharoitda foydalansangiz quyidagi qismlarga texnik xizmat ko'rsatish oralig'ini kamaytirish tavsiya etiladi: dvigatel moyi, moy filtri, havo filtri, yuritma tasmasi, va hokazo.



Agar avtomobilingiz ko'pincha qisqa masofaga (10 km dan kam) sovuq va qattiq ob-havo sharoitida (-15°C) qisqa davr davomida haydalsa dvigatelni tegishli yuqori tezlikda ishlatish, vaziyatga qarab sovitgich harorati me'yorida bo'lishini ta'minlash tavsiya etiladi.



# TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH JADVALI

Tizim	Element	×1 000 km												
		3	7,5	15	22,5	30	37,5	45	52,5	60	67,5	75		
		Oylar	3	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60	
Dvigatel tizimi	Dvigatel moyi*1	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	
	Dvigatel moyi filtri *1	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	
	Havo filtri*2	-	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	
	Dvigatelni sovitish tizimi	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
	Dvigatel sovitish suyuqligi*3	Har 48 oyda yoki 60 000 km da almashtiriladi												
	Yuritma tasmasi*4	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	R
	Gaz taqsimlash mexanizmining yuritma tasmasi, gaz taqsimlash mexanizm taranglatgichi, yo'naltiruvchi rolik	Har 100 000 km da almashtiriladi												
	Yoqilg'i tizimi (bak, naychalar, ulanishlar)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Yoqilg'i filtri (Tashqi alohida turi)	Har 24 oyda yoki 30 000 km da almashtiriladi												
	Yoqilg'i filtri (Yoqilg'i nasosi bilan birlashgan)	Texnik xizmat talab qilmaydi, zaruratga qarab almashtirish mumkin												
Uzatma tizimi	O't oldirish svechasi	-	-	-	-	R	-	-	-	R	-	-	-	
	Diagnostika qurilmasi bilan motor tizimini tekshirish	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
	Avtomatik uzatma uchun maxsus suyuqlik	Texnik xizmat talab qilmaydi												
	Quvvat uzatish moslamasi	Texnik xizmat talab qilmaydi												
Uzatma tizimi	Orqa asosiy reduktor va differensial mexanizmi yig'masi	Texnik xizmat talab qilmaydi												
	Aylanish momentini boshqaruvchi modul	Texnik xizmat talab qilmaydi												

Tormoz tizimi	Tormoz tizimi va to'xtab turish (funksiyasi)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Tormoz diski va kolodkalari	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Tormoz suyuqligi sathi	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Tormoz suyuqligi	Har 24 oyda yoki 40 000 km da almashtiring											
Konditsioner tizimi	Konditsioner tizimi ishlashini tekshirish	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Konditsioner filtri *6	Har safar tekshirib, tozalab turing, zarurat bo'lsa almashtiring											
Elektr tizimi	Akkumulyator	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Barcha chiroqlar funksiyasi	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Barcha oynalar funksiyasi	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Tovushli signal	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Oyna tozalagich funksiyasi	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Butun elektr tizimini diagnostika uskunasi bilan tekshirish	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Shassi va kuzov tizimi	Barcha eshik ilmoqlari va qullari	-	L	L	L	L	L	L	L	L	L	L	L
	Harakat uzatish vallari	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Boshqaruv tizimi (reyka, shamir)	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Botlar va gaykalar	-	T	T	T	T	T	T	T	T	T	T	T
	Amortizator	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
	Ishlangan gazlar chiqarish tizimini va uning germetikligini tekshirish	-	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Shinalar va shinalarning bosimi	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	



### Eslatma:

I: Tekshirish: Tekshirish va tozalash, ta'mirlash, sozlash, to'ldirish yoki zarurat bo'lsa almashtirish.

- R: Almashtirish
- C: Tozalash
- T: Tortib mahkamlash
- L: Moylash

Texnik xizmat ko'rsatish jadvali vaqti va bosib o'tilgan masofa qaysi biri birinchi sodir bo'lishiga qarab belgilanishi kerak.

### Izohlar:

\*1 Agar transport vositasi asosan quyidagi shartlardan birida ishlatilsa, dvigatel moyi va moy filtrini har 5 000 km yoki undan kam masofada almashtirish kerak.

- Changli sharoitda haydash
- Dvigatelni uzoq vaqt harakatsiz yoki past tezlikda ishlashi
- O'ta issiq sharoitda haydash
- Ko'p vaqt sovuq havoda haydash yoki doim faqat qisqa masofaga haydash
- Muntazam tog'lik sharoitda haydash

\*2 Agar transport vositasi juda chang va qumli joylarda ishlatilsa, havo filtrini tavsiya qilingan vaqtdan oldinroq tozalab turing va zarurat bo'lsa almashtiring. Avtomobil juda chang yoki qumli joyda ishlatilgan bo'lsa har 10 000 km dan so'ng havo filtrini almashtirish tavsiya etiladi.

\*3 Dvigatel sovitish suyuqligini almashtirganda faqat Geely tasdiqlagan sovitish suyuqligidan foydalaning. Boshqa turdagi dvigatel sovitish suyuqligi ishlatilsa dvigatel va sovitish tizimi jiddiy shikastlanishi mumkin.

\*4 Agar transport vositasi asosan quyidagi sharoitlardan birida ishlatilsa, tasmani har 7 500 km da yoki undan kam masofada tekshirib, zarurat bo'lsa almashtirib turing.

- Changli sharoitda haydash
- Dvigatelni uzoq vaqt harakatsiz yoki past tezlikda ishlashi
- O'ta issiq sharoitda haydash
- Ko'p vaqt sovuq havoda haydash yoki doim faqat qisqa masofaga haydash
- Muntazam tog'lik sharoitda haydash

\*5 Agar konditsionerga CN95 turidagi filtr qo'yilgan bo'lsa bunday filtr viruslarni filtrlaydi va 8 000 km yo'l yurishga yoki 9 oyga yetadi. Zarurat bo'lganda almashtirilishi kerak

## MAXSUS MOY VA SUYUQLIK

Element	Maxsus moy va suyuqlik	
Maxsus dvigatel moyi (4G20TD)	Hudud harorati -10 darajadan yuqori	① VCC RBS0-2AE 0W-20 yoki Shell Helix Ultra 5W-40 (SNPLUS A3/B4)
	Hudud harorati -10 darajadan past	VCC RBS0-2AE 0W-20 ①
Dvigatel sovitish suyuqligi	Geely tasdiqlagan glikol turli sovitish suyuqligi	
Avtomatik uzatma uchun maxsus suyuqlik	ATF AW-1	
Quvvat uzatish moslamasi	75W-90	
Orqa asosiy reduktor va differensial mexanizmi yig'masi	75W-90	
Aylanish momentini boshqaruvchi modul	Hobot 311	
Tormoz suyuqligi	DOT4	
Old oynani yuvadigan suyuqlik	Old oyna yuvishga qattiqligi 205 g / 1 000 kg bo'lgan suv yoki tasdiqlangan qo'shimcha quyilgan suv eritmasi ishlatiladi.	
Konditsioner sovitgichi	R134a	

① VCC RBS0-2AE Volvoning standart dvigatel moyi hisoblanadi, ushbu nom bilan SHELL Volvo va Geely uchun maxsus dvigatel moyi ishlab chiqqan - Shell Helix Ultra Professional AS-L 0W-20 (SAE 0W-20). Bu turdagi dvigatel moyining yopishqoqligi kam, kuli oz, qismlar ishqalanishi va yoqilg'i sarfini kamaytiradi. Uning yoqilg'i tejashi va LSPI (past tezlikda barvaqt o't oldirish) ko'rsatgichlari ham baland Uzoq muddatli sinovlar natijasida, ushbu dvigatel moyi dvigatelning yuqori va past harorat, tog'li



hududlar va boshqa ekstremal sharoitlar kabi qattiq talablarga javob beradi. Shell Helix Ultra Professional AS-L 0W-20 zavodda qadoqlangan dvigatel moyi ekanligiga e'tibor bering va barcha dvigatellar zavodda ushbu turdagi dvigatel moyi bilan to'ldiriladi.

② VCC RBS0-2AE 0W-20 yoqilg'ini tejaydigan, issiq havoda ham, sovuq havoda ham dvigatelni oson o't oldiradigan dvigatel moyi hisoblanadi. Agar VCC RBS0-2AE 0W-20 moyi bozorda topilmasa Geely Shell Helix Ultra 5W-40 (SNPLUS A3/B4) moyidan foydalanishni tavsiya qiladi.




Dvigatelning ishlash muddatlariga qo'yiladigan talablarni bajarish uchun zavodda barcha dvigatellarga maxsus moslashtirilgan sintetik motor moyi quyiladi. Dvigatel moyi xizmat muddati, ishga tushirish xususiyatlari, yonilg'i sarfi va atrof-muhitga ta'siri nuqtai nazaridan juda ehtiyotkorlik bilan tanlangan.

Tavsiya etilgan texnik xizmat muddatiga rioya etish uchun tasdiqlangan dvigatel moyi qo'llanishi kerak. Moy quyganda yoki almashtirganda faqat tavsiya etilgan dvigatel moyidan foydalaning, aks holda boshqa moy dvigatelning xizmat muddatiga, ishga tushirish xususiyatlari, yoqilg'i sarfiga va atrof muhitga ta'sir qilishi mumkin.

Agar belgilangan marka va quyugligidagi dvigatel moyidan foydalanilmasa dvigatel qismlari shikastlanishi mumkin. Geely bunday shikastlanishlar uchun javob bermaydi.

Geely moyini faqat Geely vakolatli texnik xizmat ko'rsatish markazida almashtirishni tavsiya qiladi.



GEELY

Distribyutor:

"GEELY AUTO WZ" XK MChJ

Manzil:

Toshkent shahri, Mirabod tumani,  
Afrosiyob ko'chasi, 8A-uy, 213-ofis

E-mail:

[info.uz@geely.com](mailto:info.uz@geely.com)

Veb-sayt:

[www.geelyuz.com](http://www.geelyuz.com)